

BOBUR DEVONINING TUZILISHIGA DOIR MULOHAZALAR

Juraboev Otabek

O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi direktor o‘rinbosari,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

atabekrj@gmail.com

***Annotatsiya.** Maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) qalamiga mansub she‘rlar to‘plami – devonning tuzilishi bilan bog‘liq ayrim masalalar qalamga olingan. Jumladan, Boburning devoni sharq mumtoz devonchiligi an‘analari asosida tuzilmagani va shunga doir muallifning o‘z qarashlari ta‘kidlangan hamda shoir asarlaridan misollar keltirilgan holda mulohazalar bayon etilgan.*

***Kalit so‘zlar.** Bobur, she‘r, ruboiy, devon, qo‘lyozma, matn.*

CONSIDERATIONS ON THE STRUCTURE OF BABUR’S DIVAN

Juraboev Otabek

Deputy Director of the State Literature Museum named after Alisher Navoi of the Republic of Uzbekistan, candidate of philological sciences, associate professor.

atabekrj@gmail.com

***Abstract.** In the article, a collection of poems written by Zahiriddin Muhammad Babur (1483-1530) - some issues related to the structure of the divan - were written. In particular, the fact that Babur’s divan is not based on the traditions of Eastern classical divan, and the author’s own views on this are emphasized, and comments are made with examples from the poet’s works.*

***Keywords.** Babur, poem, rubai, divan, manuscript, text.*

Mumtoz adabiyotda sohibi devon bo‘lish shoirdan katta mas’uliyat va iste’dod talab etadi. Devon tuzish ko‘p asrlik an’analarga egaki, ana shularni o‘zlashtirgan shoirgina bu ishga qo‘l ura olardi. O‘z davrida Zahiriddin Muhammad Boburning bu masalaga qarashi juda ham qiziq bo‘lgan. Aytish mumkinki, u bu boradga original yondashuvga ega ijodkor. Biroq, Boburning she’r tuzilishi, jumladan aruz haqida maxsus ilmiy asari va unda aruz ilmiga oid nazariy qarashlari bo‘lgani holda devon tuzilishi borasidagi ilmiy qarashlari aks etgan to‘la yozmalari bizga ma’lum emas. Lekin, uning bitiklari orasida bu masalaga bag‘ishlangan ayrim o‘rinlar borki, ular orqali muallifning bu borada ham mukammal bilimiga ega ekanligiga shohid bo‘lamiz. Bir ruboiysida u shunday yozadi:

Devonima ne rabtu ne tartibedur,

Ne jadvalu ne lavhu ne tazhibedur.

Gar sanga yibordim ani, ayb aylamakim,

Devoningni tilarga taqribedur.

“Boburnoma”ning bir o‘rnida esa Samarqand hokimi “Fo‘lod Sultonga devonimni yibordim” deb yozadi. Bu voqea milodiy 1518 yilga to‘g‘ri keladi. Shunga ko‘ra, Bobur o‘z devonini dastlabki qoralamalariga shu vaqtda tartib bergan, deyish mumkin.

Aslida, yuqorida keltirilgan ruboiy qachon yozilgan? 1518 yildan oldinmi, keyinmi? Bobur o‘z devoni badaliga kimdan yana devon “tilamoqda”? Nega devonining kamchiliklarini sanayapti va ular qanday “ayb”?

Haqiqatan, bir to‘rtlik shuncha savol tug‘diradimi?! To‘g‘ri, ularning hammasiga ham javob topish hozirda juda mushkul. Ayniqsa, kimga yo‘llangani borasidagi so‘roq, toki biror manba aniqlik kiritmas ekan, ochiq qolaveradi.

Biroq, diqqat qilinsa, avvalo, Bobur o‘z she’riy to‘plamini an’anaviy mumtoz devonchilik qolipiga batamom solishga ulgurmaganini ta’kidlamoqda. Va bu ruboiy 1518 yil, ya’ni dastlabki she’r to‘plami Fo‘lod Sultonga yuborilgandan so‘ng bitilgan.

Bu fikrga kelishimizga esa sabab bor.

Avvalo, ushbu ruboiy matni shoir devoni qo‘lyozmalarining uch nusxasidagina

keladi. Ular Istanbulda saqlanayotgan qo‘lyozmalardir (İstanbul Üniversitesi kütüphanesi No: 3743, Topkapı Sarayı Revan kütüphanesi no: 2314, İstanbul 100. Yıl Atatürk Kitaplığı (Belediye Ktb.) Muallim Cevdet yazmaları K. 332). Ikkinchidan, bu manbalarning birinchisi – Istanbul Universitetidagi nusxa Bobur devonlarining eng ko‘p she‘r yig‘ilgani hisoblanadi (yuqoridagi ruboiy esa qo‘lyozmaning 67^b-68^a varaqlaridan o‘rin olgan). Qolaversa, aynan shu nusxa keyingi ikki manba uchun asos bo‘lib xizmat qilgan.

Masala shundaki, Bobur devonlarining eng mo‘tabarlari hisoblanmish Rampur (India, Rampur Library of Risa, №19) va Parij (Paris, Bibliotheque Nationale, Suppl. Turc. 1230) nusxalarida bu ruboiyning yo‘qligi, uning keyinchalik – shoir umrining oxirgi yillariga (1520 yildan keyin) doir ekanligiga dalolat qiladi. Chunki, ta‘kidlangan universitet nusxasi tuzilish jihatidan devon tartib berish uchun yig‘ilgan Bobur she‘rlari jamlanmasini eslatadi va uning kitob qilinishi ham XVI asrning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri keladi.

Yana bir muhim tarafi shuki, Bobur ushbu ruboiysida aynan devon tuzilishining muhim unsurlari haqida eslatadi. Ya‘ni, bu o‘rinda muallif tarafidan devonchilikning shakliy va nazariy asoslariga xizmat qiluvchi unsurlar qisqacha bo‘lsa-da ta‘kidlab ketilmoqda.

Demak, Bobur nazdida, devonning shakliy jihatdan to‘la-to‘kis bo‘lmog‘i uchun quyidagilar ijob etishi zarur:

1. **Rabt.** Bu istiloh “aloqa” va “tizim” ma‘nosida keladi. Bunga ko‘ra devonning ichki strukturasi intizom, ya‘ni o‘zaro bog‘lanish bo‘lmog‘i kerak. Ya‘ni, dastlab *debocha* bo‘lishi so‘ngra *hamd*, *munojot* va *na‘t* tipidagi she‘rlar o‘rin olishi;

2. **Tartib.** Bu istiloh ma‘nosi ma‘lum. Faqat, bu borada shoir devondagi alifbo va janrlar tartibi – ketma-ketlikni ko‘zda tutmoqda;

3. **Jadval.** Bu istiloh Sharq kitobchilik san‘atida ko‘p qo‘llaniladi va muhim hisoblanadi (“jazval” shaklida ham keladi). Jadval – Sharq kitobat san‘atida eng ko‘p ishlatiladigan badiiy bezaklardan biri. U oddiy, nafis va zarhal bo‘lishi mumkin. Qo‘lyozmaning bir sahifasidagi matn atrofiga alohida jadval yoki har ikki sahifadagi

matn atrofiga yaxlit bir jadval tortiladi. Bir sahifada matn bir necha ustundan (asosan she'riy asarlar) iborat bo'lsa, har bir ustun bir-biridan jadval chiziqlari bilan ajratib qo'yiladi. Devonlarda, bayozlarda har bir she'r ham jadvalga olinadi. Qo'lyozmadagi sarlavhalar va rasm (miniatyura)lar ham jadval bilan ajratiladi. Oddiy jadval matn atrofiga tortilgan ko'pincha bir yo'lli qizil rangdan; nafis jadval juda ingichka va bir necha ranglardan tashkil topgan ikki, uch, hatto to'rt yo'ldan; zarhal jadval oltin suvi berilgan bir yoki bir necha yo'ldan iborat bo'ladi;

4. **Lavh** (*lavha*). Bu istiloh ham keng qo'llaniladi. Bu so'z o'zi ifoda etayotgan predmetlarga nisbatan bir-necha mazmuni ifoda etadi. Lekin bu o'rinda, Sharq kitobat san'atidagi asosiy badiiy bezaklardan biri sifatida kelmoqda. Lavha qo'lyozmaning boshida, agar qo'lyozma kitobning tarkibiga bir necha asar kirgan bo'lsa, har bir asarning avvalida, ba'zan esa bob va fasllarning boshlanishida ham ishlanishi mumkin. Lavha matn boshlangan sahifaning yarmi yoki uchdan bir qismida eni bo'ylab chizilgan naqshdan iborat bo'ladi. XIV-XVI asrlar Sharq kitobat san'atida lavha asosan tillo suvidan ishlangan. XVII-XIX asrlar qo'lyozma lavhalari ko'proq oddiy bo'yoqlardan iboratligi bilan ajralib turadi.

5. **Tazhib**. Bu istiloh ham qo'llanilishiga ko'ra qadim kitobatchilikda faol bo'lgan. Tazhib – qo'lyozmalarni zarhallash, oltin suvi bilan bezatishdir. Qo'lyozma bezaklaridan ko'pincha zarvaraq, qo'shzarvaraq, unvon, lavha, naqsh, jadval oltin suvi bilan yaltiratilgan. Ba'zi qo'lyozmalar sahifasining hoshiya qismiga oltin suvi sepib (purkab) ziynatlangan. Bunday hoshiya tazhibi hoshiya, deb atalgan.

Diqqat etilsa, Bobur mazkur besh istilohni devonning tugal bo'lishi va o'quvchi qo'lga yetib borishi uchun muhim yoki yetarli hisoblamoqda. Ruboiyning keyingi ikki misrasiga qaralsa, "*Gar sanga yibordim ani, ayb aylamakim*" deya agar beshta devon unsuri – "*rabt*", "*tartib*", "*jadval*", "*lavh*" va "*tazhib*" bo'lmasligini ayb etmaslikni so'ramoqda.

O'z navbatida buning sababi sifatida esa "*Devoningni tilarga taqribedur*" deya asos keltirilmoqda. Ya'ni, u mazkur ruboiyni boshqa bir qalamkash-shoir – devon tuzuvchiga yo'llamoqda va o'zining hali tugallanmagan devonini jo'natib, buning

badaliga uning to‘plamini so‘rab olish istagidadir.

Anglashiladiki, Bobur devoni daragi va dovrug‘i hali to‘la tartib bermasdan ham mashhur bo‘lgan. Uni muallifning o‘zidan so‘rab olib o‘qiguvchi muxlislar, oxirigacha-mukammal tarzda bo‘lmasa-da, tezroq bahramand bo‘lish niyatida o‘zidan iltimos qilib olib turishgan.

Boburning ruboiysidan devon tuzilishi bilan bog‘liq holda quyidagicha nazariy xulosa chiqarish mumkin bo‘ladi. Dastlabki ikki istiloh – “*rabt*” va “*tartib*” devonning matn tuzilish strukturasi bilan bog‘liq bo‘lsa, “*jadval*”, “*lavh*” va “*tazhib*” devonning ko‘rinish, ya‘ni badiiy kitobat bezagi bilan bog‘liq ravishdagi atamalardir.

Demak, devon (she‘rlar to‘plami) matn nuqtai nazaridan qat‘iy ichki tartibga (alifbo harflarining ketma-ketligi, qofiya-radiflarning navbati, janrlar oldinma-ketinligi; *debocha*, *hamd*, *munojot* va *na‘tlarning kelishi*) ega bo‘lmog‘i, keyin esa uning qo‘lyozmasi ta‘kidlangan ichki bezaklarning o‘rinli qo‘llanib tuzilishiga bog‘liq bo‘lar ekan. Shuni ham eslatish kerakki, badiiy bezaksiz ham, oddiy ko‘chirilgan devon nusxalari ko‘p uchraydi. Lekin, bu o‘rinda Boburning podshohligi va yuksak didli san‘atkor ekanligini ko‘zda tutish o‘rinli bo‘ladi.

Xulosa qilganda, Bobur mirzo o‘z devonini yuqorida keltirilgan mumtoz devonchilik talablari asosida mukammal sur‘atda tartib berishga va bu borada ham o‘z xassos ijodkorlik qirralarini ko‘rsatishga intilgan shoir o‘laroq ko‘z oldimizda gavdalanadi. Uning devon tuzish va devonchilik borasidagi qarashlari mumtoz devonchilik an‘analarini mukammal tarzda biluvchi, tajriba va mahorat sohibi, salohiyatli ijodkor ekanligini yana bir karra tasdiq etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi (qayta ishlangan ikkinchi nashr). –Toshkent: “SHARQ” NMAK, 2017.
2. Diwan-i Babur. India, Rampur Raza Library 2014.
3. Dr. Bilal Yücel. Babür divanı. Gramer, Metin, Sözlük, Tıpkıbasım. –Ankara, 1995.
4. Juraboev O. *Бобур девонининг саҳиҳ матни борми?* // ЎзАС. 2017, 10 февраль. №7;
5. Juraboev O. *Бобур девон тузганми?* // ЎзАС. 2018, 16 февраль. №8;
6. Juraboev O. *Бобурнинг нечта девони бор?* // Til va adabiyot ta’limi. 2018. №2. 41-43-бетлар.
7. Juraboev O. Teoretical views of Bobur about the divan strukture // ACADEMICIA. An International Multidisciplinary Research Journal. Vol. 10, Issue 5, May 2020. P.1493-1498.
8. Juraboev O. Zahiriddin Muhammad Babur and the divan strukture // International University Science Forum. SCIENCE EDUCATION PRACTICE. Part 2. Toronto, 2020. P. 42-49.